

O'ZBEKISTON ZAMONAVIY SAN'AT MUZEYI NOYOB XAZINALARI

Jamolova Dilnoza Sulton qizi
Kamoliddin Behzod nomidagi
Milliy rassomlik va dizayin instituti
1 kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6055229>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Urganch shahrida joylashgan O'zbekiston zamonaviy san'at muzeyi kolleksiyasidan o'rin egallagan asarlar va ularning tahlili, mazkur rangtasvir namunalarining o'zbekiston rangtasviri rivojlanishidagi o'rni va ahamiyati haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, 1920-1990 yillar davomida ijod qilgan mashhur atoqli o'zbek rassomlarining noyob ijod namunalari, Xorazmda balki, boshqa viloyatlarda ijod qilgan o'zbek rassomlari ijodining o'ziga xosligi, Xorazmda ijod qilgan ilk ayol rassom qalamiga mansub asar namunalari, texnikasi, mavzu va g'oyalari yoritib berilgan.

Аннотация: В данной статье рассматриваются произведения из коллекции Музея современного искусства Узбекистана в Ургенче и их анализ, роль и значение этих картин в развитии узбекской живописи. Уникальные произведения известных узбекских художников 1920-1990 годов, самобытность творчества узбекских художников Хорезма и других регионов, Описаны образцы, приемы, темы и идеи первой художницы Хорезма.

“Mingta qal’alar mamlakati” deb ataluvchi Xorazm O’rta Osiyodagi qadimiy madaniyat maskanlaridan biridir. Xorazmni undagi ko’plab ko’hna yodgorliklari sababli shunday nom bilan atashadi. Bu yerdagi har bir toshning o’z tarixi bor. Asirlar davomida shakillangan madaniyati, an’analari va o’ziga xos san’ati bilan bugungi kungacha butun dunyoni lol qoldiib kelmoqda. Xorazm vohasi nafaqat o’lkamiz, balki, butun O’rta Osiyo tarixida ham muhim o’rin tutadi. Shu boisdan S.P.Tolstov Xorazmni “Dunyoni shimoliy Yevroosiyo cho’llari va O’rta Osiyoning janubiy va old tog’li mamlakatlari va sharqiy O’rtayer dengizi, Hind va Shimoliy Yevroosiyo unsurlarini o’zida mujassam etgan Shimoliy Hind pastteksligi bilan bog’luvchi bo’g’in” deb ta’riflagan.¹ Mazkur mintaqada inson sivilizatsiyasi beshiklaridan biri sanaladi. Beriniy, Al-Xorazmiy, Zamaxshariy, Ogahiy kabi buyuk shaxslar yashab ijod qilgan. Xorazm nafaqat buyuk shaxslari bilan balki, o’zining mohir me’morlari, amaliy san’ati, musiqa san’ati bilan alohida ajralib turuvchi mintaqalardan biridir. Me’morchilikdagi

¹ С.П.Толстов. Древний Хорезм. М., 1948

o'ziga xos shakli, o'zgacha kompozitsion yechimi bilan Buxoro, Samarqand me'morchiligidan farq qiluvchi Xorazm me'moriy yodgorliklariga tan bermaslikning iloji yoq.

Xorazm bugungi kunda tariximiz haqida so'zlovchi me'moriy yodgorliklari, amaliy san'ati va noyob rangtasvir asarlarini o'zining bag'rida necha asrlardan beri avaylab kelayotgan noyob buyumlar xazinasidir. Shunday xazinalardan biri Urganch shahridagi O'zbekiston zamonaviy san'at muzeyidir. Mazkur muzey 2018 yilgacha Urganch suratlar galereyasi nomi ostida faoliyat olib borgan. Mazkur muzeyda o'zbek rassomlarining 1950-yillardan mustaqillik davrigacha bo'lgan noyob ijod namunalari o'rin egallagan bo'lib, O'zbekiston tasviriy san'atining rivojlanish jarayonlarini o'rganish uchun manba bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston zamonaviy san'ati muzeyiga 1982 yilda, buyuk alloma Muso Al-Xorazmiy tavalludiga 1200 yil to'lishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan yubiley tadbirlarini tashkil etish va uni o'tkazish bo'yicha qabul qilingan qarorga muvofiq asos solingan. Muzey joylashgan bino 1920 yillarda qurilgan bo'lib, bino qurilishida Xorazm milliy me'morchiligi va Yevropa me'morchiligi uslublarini uyg'unlashtirgan holda yuksak did va mahorat bilan qurilgan. Muzey ayvondagi ustunlar XIX-XX asrlarda Xiva me'morchiligi uslubida yuksak darajada ishlangan. Ushbu ustunlarning ikkitasi esa Xorazm yog'och o'ymakorligi maktabi asoschilaridan bo'lgan usta Ota Polvonov tomonidan yaratilgan. Binoning asosiy kirish qismiga Buxoro yog'och o'ymakorligi ustalari tomonidan yaratilgan ikki tabaqali o'ymakor eshik o'rnatilgan bo'lib, ulardagi o'yma islmiy naqshlar kishida o'ziga xos hayrat va havas uyg'otadi. Bino "П" harfi shaklida bo'lib, muzey ikkita ko'rgazma zalidan iborat. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 11 dekabrda 975-sonli qarori² bilan tasdiqlangan 2017-2027 yillarda davlat muzeylari faoliyatini kuchaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturining 2a ilovasiga muvofiq Urganch badiiy galereyasi O'zbekiston zamonaviy san'at muzeyi nomi bilan atalgan va 2018 yildan beri qayta tashkil etilib kelinmoqda. Mazkur muzeyida nafaqat Xorazmda yashab ijod qilgan rassomlar balki, O'zbekiston xalq rassomlarining ijod namunalari ham kuzatish mumkin. Muzey kolleksiyasidagi asarlarning aksariyati asl kartinalardir, ammo shu bilan birga aynan rassomning o'zi tomonidan bajarilgan asarlarining nusxalari ham o'rin egallagan.

Mashhur o'zbek portretchi rassomlaridan A.Abdullayevning "Sergey Borodin portreti" (1964-65 y), "Raqqos bola portreti" (1964 y), "Qizaloq

² <https://lex.uz/ru/docs/3457075?otherlang=4>

portreti" (1964-65 y), "Bastakor Ilyos Akbarov portreti"(1978-79 y), O'zbekiston xalq rassomi R.Ahmedovning "Chori portreti"(1983 y), "Tog' manzarasi" (1983 y), rassomning o'zi tomonidan "Ona o'ylari" asarining 1986 yilda ishlangan nusxasi, mahobatli rangtasvir ustasi Chingiz Axmarovning "Yarador jangchi" (1979-82 y), O'zbek xalq raqslari"(1986y), "Eroncha raqs" (1984y), "Xorazmcha raqs"

(1985y), "Zulayxo" (1987y), "Yusuf" (1987 y), manzarachi rassom Ne'mat Qo'ziboyevning "Angren manzarasi" (1979 y), "Birinchi qor" (1982 y), "Qo'qon yaqinida" (1983 y), "Shohimardon. Ko'k suv bulog'i" (1983 y), Mannon Saidovning portret janridagi "Ishchi Muhiddinov" (1960 y), maishiy janrdagi "Paxta bayrami" (1982 y), "Paranji tashlash"(1984 y) kabi asarlarni shuningdek, Bahodir Jalolov, Shuhrat Abdurashidov, Javlon Umarbekv, Alisher Mirzayev, Ma'sud To'xtayev, Yuriy Taldakin, Yigitali Tursunov, Yevgeni Melnikov, Aziza Mamatova, Samig' Abdullayev, Rustam Alimov, Vyacheslav Oxunov, Chori Bekmirov, Akmal Ikromjonov, Rustam Xudoyberganov, Shahnoza Abdullayeva kabi ko'blab rassomlarning portret, maishiy, tarixiy, manzara janrlarida yaratilgan sara ijod namunalariga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Mazkur muzey ekspozitsiyasi shu bilan birga Samarqand, Buxoro, Qoraqalpoq rassomlar ijodini ham qamrab olishi bilan ahamiyatlidir. Muzey kolleksiyasida Samarqandlik rassomlardan modernist rassom, ko'proq abstraksionizmga ham ijod qilgan Kriks Andreyning "Kalla suyagi bilan natyurmort" (1986 y), "Ekologiya" (1984y), "Skunat" (1978 y) kabi asarlari, Kalantarov Emmanuelning "Ko'hna va yangi Samarqand" (1972 y) tarixiy asari, manzara janridagi "Shoxizindada bahor" (1983 y) asarlari o'rin olgan bo'lib, mazkur rangtasvir namunalari 1980 yillarda Samarqand rangtasvirida kechgan badiiy jarayonlar haqida ma'lumot beradi.

Buxoro rangtasvirida ham shu davrda jonlanish yuz beradi, kolleksiya Buxoro rangtasviridan na'munalarni ham qamrab oladi. Mashhur Buxoro rangtasvir ustasi Zelimxon Saidjonovning natyurmort janridagi "Bo'yoq va quti bilan natyurmort" (1986 y), "Tikuvchi" (1988 y), "Onalik" (1986 y), "Choyxonachi" (1986 y), "Hovuz bo'yida" (1986 y) asarlari muzey ko'rgazmasidan o'rin olgan. Z.Saidjonovning ekspozitsiyadan o'rin egallagan asarlarini kuzatar ekanmiz uning ijodiga Yevropa konstruktivizmi, Pikasso va nemis ekspressionistlari, Erix Noldening asarlari katta ta'sir ko'rsatganini sezishimiz mumkin. Uning kartinalariga qarab, beixtiyor samarqandlik Andrey Krikisning ijodi yodga tushadi. Ikkala rassom ham erkin ifoda "orolining" taniqli vakillari. Shuningdek, Bahodir Salomovning "Hashar" (1983.y), "Qishni kutish" (1980.y), "Suhbat" (1983.y) asarlari, Muzaffar Abdullayevning manzara janridagi

“Bahorgi tashvishlar” (1985.y), “Oqshom” (1986 y), ramziy-falsafiy uslubdagi “Dorbozlar”(1986.y), “Lirika” (1987.y.) asarlari, Boboyev Nisonning ekspressionizm uslubiga asoslangan manzara janridagi “Daraxtlar” (1989 y) asari, animalistik janrdagi “Shoxli qushlar” (1989 y), abstraksionizga yaqin kubofuturizmda ishlangan “Kompozitsiya №1” (1989 y), “Kompozitsiya №2” (1989 y), “Kompozitsiya № 3” (1989y), “Kompozitsiya №4”(1989 y), asarlari mavjud.

Muzey kolleksiyasi Qoraqalpoq rassomlarining ijodiy namunalarini ham qamrab oladi. Ulardan Sarsenboy Baybasinovning natyurmort janridagi “Gullar bilan natyurmort” (1989 y) asari bo‘lib, asosan postimpressionism usulida ishlagan. Izentayev Julliboyning natyurmort janridagi “Niqob bilan natyurmort” (1987 y), manzara janridagi “Olma daraxti ostidagi qiz” (1984 y), Faim Madgazinning manzara janridagi “Xivada qish” (1972 y), tarixiy janrdagi “Xiva. Kaltaminor minorasi” (1982 y) asari mazkur davrlarda Qoraqalpoq rangtasviridagi rivojlanishlar, o‘ziga xoslik, uslublari haqida ma’lumot beradi.

Muzey fondining asosiy qismini xorazmlik rassomlar ijod namunalari tashkil etadi. Ulardan Xorazm rangtasvirining rivojlanishida o‘zining beqiyos hissasini qo‘shgan, Xorazmda Xorazm rassomlar uyushmasining ochilishiga sababchi bo‘lgan mashhur xorazmlik rassom To‘ra Kuryazovning “Qizil Xiva” (1977 y), “Nazira xalfa qo‘shiqchi” (1987 y), “Zumrad rang qishloq” (1982 y) kabi asarlari, ilk ayol teatr rassomi Lola Abdullayevaning “Xorazm shulasi” (1971 y) va “So‘qir ayol” (1972 y) asarlari o‘rin egallagan. L.Abdullayevaning “Xorazm shulasi” kartinasida zamondoshi, xalq orasida “Onash cho‘loq” nomi bilan mashhur bo‘lgan qo‘shiqchi, shoira Onabibi Safarova portretini yaratgan. Mazkur ayol san’atkor bo‘lish bilan birga ayollar ozodligi uchun ham kurashgan siymolardan biridir. Asar teatr sahnasini yodga soladi.Qahramon garmon chalib, oq ot minib turgan holda tasvirlangan. Boshida oq durra, xuddi shunday oq durra o‘ragan ayollar, milliy libosdagi erkaklar uni o‘rab turibdi. Orqa fonda Xiva me’morchilik yodgorligi tasvirlangan. Onabibi qo‘shiq kuylamoqda. L.Abdullayevaning rangtasvir asarlari o‘zining badiiyligi va koloritiga ko‘ra ajralib turadi. Asarlaridagi orqa planda Xivaning qadimiy me’morchilik yodgorliklarini tasvirlanishi, libos, matolarga mahorat bilan ishlov berishi, bularning barchasi rassomning rangtasvir asarlariga xos bo‘lib, uning teatr bezakchi rassomi ekanidan dalolat berib turadi.

Xorazmlik mashhur rassmom Qurbonboy Bekchonovning “Xalq ustasi R.Matchonov portreti” (1981 y), “Choshgoh” (1986 y), “Dala” (1986 y), “Cho‘pon” (1986 y), “Xotira kuni” (1987 y), “So‘qir mashshoqlar” (1988 y), “Bolalik” (1989 y), “Muvozanat” (1989 y), “Niqob”(1988-89 y) asarlari ham

mazkur muzey kolleksiyasidan o'rin olgan bo'lib, mazkur asarlarni o'rganar ekanmiz, 1986 yilga kelib uning asarlarining ifodalash uslubi va ranglarida o'zgarishlar yuz berganini kuzatamiz. Ya'ni, yorqin ranglarda fovizmga xos uslubda ishlashga o'tganligini sezamiz. Mustaqillik davriga kelib esa rassom ramziy kinoya usulida asarlar yaratib, neoprimitivizmga urg'u bergan. Misol uchun "Bahs" (1990 y), "Nasriddin bozorda" (1990 y), ammo portret janridagi asarlarida realizmga sodiq qolgan ("Mening buvim Shukurjon momo" (1987-92 y). Ahamiyatli tomoni shundaki, rassomning ijodidagi xilma-xillikni biz muzey kolleksiyasidagi kartinalari orqali o'rganib chiqishimiz mumkin. Shu bilan birga Xorazmlik mashhur teatr rassomi, rangtasvir ustasi Otaxon Allabergenovning "Qish manzarasi" (1980 y), "Eski shahar" (1980 y), "Kuzgi daraxtlar" (1980 y), "Ko'hna Urganch" (1980 y) asarlari, Safo Do'shonovning "Sen mening kuyimsan - Xorazm" (1980 y), "Navro'z", "Cho'li-Iroq kuyi" (1985 y), "Lazgi raqsi" (1987 y), "Xorazmlik musiqachilar" (1989 y) asarlari ham o'rin olgan bo'lib, "Sen mening kuyimsan - Xorazm" kartinasi ishlash uslubi jihatdan italiya uyg'onish davri an'analarga xos tarzda ishlanganligi bilan ajralib turadi. Yana bir Xorazmlik rassom Erkaboy Masharipov bo'lib, asosan tarixiy portret va manzara janrlarda ijod qilib kelmoqda. Uning asarlari Xorazm etnomadaniy xususiyatlarini o'zida aks ettirishi bilan alohida ajralib turadi. Uning "X.Devonov portreti" (1984-1985 y) asari mashhur ijodiy ishlaridan biridir. Soli Qodirovning "Oila" (1991 y) asari esa kompozitsiyaning yaxlitligi, voqelik ortiqcha detallarsiz gavdalanitirilgani, maqsad aniq ifodalanganligi bilan e'tiborlidir.

Xorazm san'ati bo'yicha ma'lumotlarni kuzatar ekanmiz mazkur hududda tasviriy san'at boshqa san'at turlariga nisbatdan kechroq rivojlanganining guvohi bo'lishimiz mumkin. Xorazm rangtasvirida kartinalardagi asosiy mavzular manzara, tarixiy va portret janrlariga asoslangan bo'lib, Xiva tarixiy obidalari, ko'chalari, go'zal tabiati o'z aksini topgan. Xorazmning issiq, qumli chang havosini ifodalash uchun issiq ranglardan unumli foydalanishgan. Xorazm rangtasvirida nafaqat janrlar jihatdan xilma-xillikni balki, uslubiy jihatdan ham xilma-xillikga ham guvoh bo'lishimiz mumkin. Misol uchun, S.Do'schanov, Sh.Bobojonov, Q.Bekjonov, M.To'xtayev, S.Qodirovlarning modernizm, abstraksionizm, fovizm, neoprimitivizm, kubofuturizm, arentalistik tashbehlardan unumli foydalanganligini aynan O'zbekiston zamonaviy san'at muzeyida saqlanadigan asarlari orqali ko'ra olamiz. Shuningdek, rassomlar tomonidan A.Volkov (S.Qodirovning "Doston", "Qizlar" asarlari) va Yevropa rassomlari Pikasso, Salvador Dali, Van Gog kabi rassomlar ijodiga (M.To'xtayevning "Kentave-80", "Chorraha", Maksim Vardanyanning "Botinka bilan natyurmort", Viktor Gubskiyning "Tandir bilan manzara", X.S.G'ulomovning

“Ayol bilan kaktus portreti” asarlari) o‘xshab ishlangan asarlar ham mavjud bo‘lib, bu rassomlar ijodining keng qamrovli bo‘lganligidan darak beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. С.П.Толстов. Древний Хорезм. М., 1948 г
2. Ижодимиз ҳақида гапирсак. I жилд. – Тошкент, 2006.
3. Истроия Хорезма с древнейших времен до наших дней. Тошкент, 1976
4. <https://lex.uz/ru/docs/3457075?otherlang=4>